

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
FAN DOKTORI ILMIY DARAJASINI BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**NORMAMATOV ADHAMJON SA'DULLA O'G'LI**

**5-SULFOSALITSIL KISLOTA ASOSIDAGI YANGI KOORDINATSION  
BIRIKMALARNING SINTEZI, TUZILISHI, BIOLOGIK FAOLLIGI VA  
3D MODELLASH**

**02.00.01 – Noorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
chemical sciences**

**Normamatov Adhamjon Sa’dulla o‘g‘li**

5-sulfosalitsil kislota asosidagi yangi koordinatsion birikmalarning  
sintezi, tuzilishi, biologik faolligi va 3D modellash----- **3**

**Нормаматов Адхамжон Саъдулла угли**

Синтез, строение, биологическая активность и 3D-моделирование  
новых координационных соединений на основе 5-  
сульфосалициловой кислоты----- **21**

**Normamatov Adhamjon Sadulla ugli**

Synthesis, structure, biological activity and 3D modeling of new  
coordination compounds based on 5-sulfosalicylic acid----- **41**

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... **45**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
FAN DOKTORI ILMIY DARAJASINI BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**NORMAMATOV ADHAMJON SA‘DULLA O‘G‘LI**

**5-SULFOSALITSIL KISLOTA ASOSIDAGI YANGI KOORDINATSION  
BIRIKMALARNING SINTEZI, TUZILISHI, BIOLOGIK FAOLLIGI VA  
3D MODELLASH**

**02.00.01 – Noorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/K753 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (ik-kimyo.nuu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalinφ (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ibragimov Aziz Baxtiyarovich**  
Kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Umarov Baqo Bafayevich**  
Kimyo fanlari doktori, professor  
**Raxmonova Dilnoza Salamovna**  
kimyo fanlari nomzodi, dotsent


**Yetakchi tashkilot:**

Toshkent davlat farmatsevtika instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.K.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 22.02. soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri Universitet ko'chasi 4-uy. Tel.: (+99871) 246-07-88; (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21; e-mail: [ilmiy\\_kengash@nuu.uz](mailto:ilmiy_kengash@nuu.uz))

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 8 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri Universitet ko'chasi 4-uy. Tel.: (+99871) 246-07-88; (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "4" fevral kuni tarqatildi.  
(2025 yil " 3 " fevraldagi 5 raqamli reestr bayonnomasi).



## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi kunda dunyoda kam zaharli, biologik faol ligandlarning o'tish metallari bilan hosil qilgan koordinatsion birikmalari tibbiyotda turli kasalliklarni davolashda, qishloq xo'jaligida o'stiruvchi moddalar, zamburug'larga qarshi vositalar, begona o'tlarga qarshi kurashish vositalari va hasharotlarga qarshi kurashish vositalari sifatida, sanoatda esa sorbsion xususiyatlarga ega bo'lgan metall-organik karkaslar sifatida keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, ilm-fanda ko'p funksiyali koordinatsion birikmalarga bo'lgan talab va qiziqish tobora ortib bormoqda. Shularni inobatga olgan holda, ayrim 3d metallarning tarkibida kislorod va azot tutgan 5-sulfosalitsil kislota va monoetanolamin bilan biologik faol, kam zaharli koordinatsion birikmalarini sintez qilish hamda qishloq xo'jaligi va tibbiyotda qo'llash uchun mo'ljallangan preparatlarni ishlab chiqish muhim amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahon ilmiy manbalarida benzoy kislotalari va ularning hosilalari asosida metallokomplekslar sintezi va tuzilishini o'rganish bo'yicha ko'plab ma'lumotlar mavjud. Xususan, oraliq metallarning ushbu ligandlar bilan hosil qilgan kompleks birikmalarining tuzilishi va xossalari metall va ligandlarning tabiatiga, sintez haroratiga, erituvchilarning ta'siriga va boshqa bir qator omillarga bog'liqligi qayd etilgan. Shuni inobatga olgan holda, zaruriy omillarni tanlash, zarur kompleks birikmalarni sintez qilish, ularning tuzilishini aniqlash, strukturaviy xossalari va biologik faolligi o'rtasidagi bog'liqlikni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida tibbiyot, farmasevtika, qishloq xo'jaligi, sanoat tarmoqlarini rivojlantirishi va global iqlim o'zgarishlari turli xildagi antibakterial vositalarga chidamli zararli patogen bakteriyalarni paydo bo'lishiga olib kelmoqda, ushbu patogen bakteriyalarga qarshi kurashish uchun kam zaharli, ko'p funksiyali koordinatsion birikmalarni sintezlash va ular ustida tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «tibbiyot va farmasevtika tarmoqlarini rivojlantirish» PF<sup>1</sup> ga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Shunga asoslanib so'nggi yillarda O'zbekiston hukumati farmatsevtika sanoatini rivojlantirish va dori vositalari sifatini ta'minlash bo'yicha xalqaro standartlarga erishishga jiddiy e'tibor qaratmoqda, jumladan, 2019-yilda "O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika tarmog'ini yanada jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni (PF-5707) va "Prezidentning farmatsevtika tarmog'ini yanada jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4554 sonli qarorida o'z ifodasini topgan.

Ushbu dissertatsiya ishining tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli «2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni, 2018 yil 25 oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3983-son, 2019 yil 3 apreldagi

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni

«Kimyo sanoatini yana-da isloh qilish va investitsion jozibadorligini oshirish» to'g'risidagi PQ-4265-son hamda 2020 yil 12 avgustdagi «Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4805-sonli qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. «Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dunyodagi yetakchi ilmiy jamoalardan 5-SSK va MEAlar ishtirokida olingan koordinatsion birikmalar, ularning tuzilishi, fizik-kimyoviy xossalarni o'rganish bo'yicha ishlarni Khan M., Kalshetty B.M., Lewandowski W., Furia E., Juillard J., Kiss T., Kukovinets O.S., Köse D.A., Mangrich A.S., Prakash D. va ularning jamoalari olib borishgan. Kembrij kristallografik ma'lumotlar (CCDC-2024) bazasi tahliliga binoan, 2024 yilgacha 5-SSKning 417 ta, metall komplekslari olingan va tuzilishi aniqlangan.

O'zbekistonda koordinatsion birikmalarning sintezi, tuzilishi, xossalari bo'yicha tadqiqotlar akademiklar N.A.Parpiyev va B.T.Ibragimov, professorlar X.T.Sharipov, B.B.Umarov, A.A.Shabilolov, T.A.Azizov, Sh.A.Kadirova, Z.Ch. Kadirova, X.X.To'rayev, Sh.Sh. Daminova, J.M.Ashurov va Sh.A. Kasimov rahbarligidagi olimlar jamoasi tomonidan amalga oshirilgan, fundamental va amaliy tomonlari bo'yicha izlanishlar davom ettirilmogda.

Adabiyot manbaalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 3d-metallarning 5-SSK bilan hosil qilgan birikmalarini o'rganish bo'yicha keng miqyosda tajriba natijalari bo'lishiga qaramasdan, Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II), Mn(II) va Ag(I) ionlarining 5-SSK va MEA bilan metall komplekslari tarkib-tuzilish-xossa nuqtai-nazaridan biologik hususiyatlarini yetarli darajada o'rganilmagan. Shu sababli 5-SSK hamda MEA asosidagi yangi koordinatsion birikmalarni sintez qilish, ularning fizik-kimyoviy, biologik xossalarni va 3D modellash orqali tadqiq qilish alohida ilmiy qiziqish kasb etadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo institutining CAM202201 raqamli "5-SSK supramolekulyar komplekslarining sintezi, tuzilishi, "in-vivo" va "in-silico" mikroblarga qarshi va o'simlik o'sishiga ta'sir faolligi" (2023-2024-yy) mavzusidagi amaliy layiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** 5-sulfosalitsil kislota asosidagi yangi koordinatsion birikmalarning sintezi, tuzilishi, biologik faolligi va 3D modellashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:** 5-SSK va MEA ning Co(II), Ni(II), Cu(II), Mn(II), Zn(II) va Ag(I) ionlari bilan koordinatsion birikmalarini sintez qilish usullari va sharoitlarini aniqlash hamda ularning monokristallarini olish;

sintez qilingan koordinatsion birikmalarning tarkibi, tuzilish xususiyatlarini zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida tahlil qilish;

sintez qilingan koordinatsion birikmalarni kvant-kimyoviy usullar orqali energetik va geometrik ko'rsatgichlari, elektron tuzilishi, hamda reaksiya qobiliyatlarini aniqlash;

sintez qilingan koordinatsion birikmalarning biologik faolliklari, zaxarilik darajasi, hamda qo'llash sohaslarini amaliy va nazariy jihatdan aniqlash.

**Tadqiqot obyekti** 5-SSK, MEA, Co(II), Ni(II), Cu(II), Mn(II), Zn(II) va Ag(I) tuzlari, sintez natijasida olingan koordinatsion birikmalar, gram(+) va gram(-) bakteriyalar, koordinatsion birikmalarning tuzilishi va xossalari haqida dasturlar yordamida yaratilgan 3D modellari hisoblanadi.

**Tadqiqot predmeti** 3d metallar bilan 5-SSK, va MEA hosil qilgan komplekslar, ularning kristall tuzilishi, biologik va fizik-kimyoviy xossalari, yangi olingan birikmalarning zaxarilik darajasi, substrat-ligand supramolekulyar kompleksi, *in-silico* dasturlari yordamida yaratilgan 3D modellar.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiya ishida rentgen tuzilish tahlili (RTT), termik tahlil (DTA), IQ-spektroskopiya, UB-spektroskopiya, biologik faolliklarni aniqlash usullari, yangi kvant-kimyoviy hisoblash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Ilk bor 5-SSK va MEAning Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II), Mn(II) va Ag (I) ionlari bilan diskret<sup>2</sup> va polimer tuzilishli 12 ta koordinatsion birikma sintez qilingan.

RTT, IQ-spektroskopiya, UB-spektroskopiya, DTA tekshirish usullari orqali olingan koordinatsion birikmalarning tarkibi, tuzilishi va xossalari aniqlanib, ulardan geksogonal oktaedrir geometriyada  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Zn}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Ni}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Co}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Mn}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})_2] \cdot \text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})_2]$  diskret koordinatsion birikmalar,  $\{[\text{Co}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})]\}_n$  va  $\{[\text{Ag}_2(\text{H}_2\text{O})_3(5\text{-SSK})_2]\text{H}_2\text{O}\}_n$  polimer koordinatsion birikmalar,  $\{[\text{Cu}_3(5\text{-SSK})_2(\text{MEA})_4](\text{H}_2\text{O})_2\}_n$ ,  $\{[\text{Mn}(5\text{-SSK})_2](\text{MEA})(\text{H}_2\text{O})\}_n$ , va  $\{[\text{Cu}(5\text{-SSK})_2](\text{MEA})_2(\text{H}_2\text{O})_2\}_n$  aralash ligandli polimer koordinatsion birikmalar ekanligi aniqlangan;

ilk bor sintez qilingan koordinatsion birikmalarning patogen bakteriyalarga qarshi yuqori selektiv ta'sirga ega ekanligi aniqlangan. "*In silico*" yondashuvi yordamida  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})_2] \cdot \text{H}_2\text{O}$  va  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})_2]$  tarkibli komplekslarning patogen bakteriyalar oqsiliga bog'lanish natijalari an'anaviy "*in vivo*" usul bilan tasdiqlangan;

ilk bor sintez qilingan monoligandli  $[[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Zn}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Ni}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Co}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Mn}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})_2] \cdot \text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})_2]$ ,  $\{[\text{Co}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})]\}_n$  koordinatsion birikmalarning barqarorlik konstantalari spektroskopik usullar bilan o'rganildi va eritmalaridagi eng barqaror birikma  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})_2] \cdot \text{H}_2\text{O}$  ekanligi aniqlangan;

sintez qilingan  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Zn}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Ni}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Co}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Mn}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})_2] \cdot \text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})_2]$  va  $\{[\text{Co}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})]\}_n$

<sup>2</sup> Diskretlik (lotincha: discretus — ajratilgan, uzlukli) koordinatsion birikmalarda 1D, 2D yoki 3D ko'rinishda polimerlanish kuzatilmaganligini anglatuvchi tushuncha.

koordinatsion birikmalarning kristallografik ma'lumotlaridan foydalanib Hirshfeld sirt xususiyatlari aniqlangan;

sintez qilingan barcha koordinatsion birikmalar bakteriyalarga qarshi biologik faol hamda 4-sinf "kam zaharli" kimyoviy birikmalar toyifasiga kirishi aniqlangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

5-SSKning Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II), Mn(II), Ag(I) ionlari bilan diskret, polimer, 5-SSK va MEA bilan Cu(II), Mn(II) ionlari ishtirokida aralash ligandli polimer koordinatsion birikmalarini sintez qilishning qulay sharoitlari aniqlangan;

$\{[\text{Cu}_3(5\text{-SSK})_2(\text{MEA})_4](\text{H}_2\text{O})_2\}_n$ ,  $\{[\text{Mn}(5\text{-SSK})_2](\text{MEA})(\text{H}_2\text{O})\}_n$ ,  $[\text{Co}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  va  $\{[\text{Co}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})]\}_n$  larning tuzilish ma'lumotlari va barcha kristallografik kattalıkları Kembrij kristallografik ma'lumotlar bazasiga shunga o'xshash birikmalarni sintez qilish hamda ilmiy izlanuvchilar foydalanishi uchun joylashtirilgan;

5-SSK asosida olingan monoligandli koordinatsion birikmalarning antibakterial faolligi yuqori, dizenfiksiyalovchi xususiyatga ega va kam zaharli (4-sinf), aralash ligandli polimer koordinatsion birikmalarining antibakterial faolligi esa past, ular ham kam zaharli (4-sinf) birikmalar toifasiga kirishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi:** Sintez qilingan koordinatsion birikmalarning tarkibi va tuzilishi element analizi, RTT, DTA, IQ-spektroskopiya, UB-spektroskopiya usullari bilan, kvant-kimyoviy hisoblashlardan kristall tuzilishi Crystall Explorer 21.5 dasturida, elektron zichliklari (DFT) GAMESS 2023 dasturida, biologik faollıkları gram musbat bakteriyalar: *Bacillus subtilis*, *Proteus mirabilis*, *Staphylococcus aureus*; gram manfiy bakteriyalar: *Escherichia coli*, *Pseudomonas aeruginosa*, *Serratia marcescens*, *Klebsiella oxytocalarda* sinovdan o'tkazilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:** 5-SSKning Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II), Mn(II) ionlari bilan diskret koordinatsion birikmalari oktaedr ekanligi, misli koordinatsion birikmalarda esa Yan Teller effektini kuzatilganligi,  $\{[\text{Co}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})]\}_n$  va  $\{[\text{Ag}_2(\text{H}_2\text{O})_3(5\text{-SSK})_2]\text{H}_2\text{O}\}_n$  polimer birikmalarida 5-SSKni markaziy atomlarni ko'prik bo'lib bog'lash xususiyati,  $\{[\text{Cu}_3(5\text{-SSK})_2(\text{MEA})_4](\text{H}_2\text{O})_2\}_n$ ,  $\{[\text{Mn}(5\text{-SSK})_2](\text{MEA})(\text{H}_2\text{O})\}_n$ , va  $\{[\text{Cu}(5\text{-SSK})_2](\text{MEA})_2(\text{H}_2\text{O})_2\}_n$  birikmalarda ligandlarni markaziy atomga monodinant va bidentant birikishi, ular da 5-SSKni ko'prik vazifasini bajarish xususiyati tadqiqot natijalarining ilmiyligini izohlaydi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati diskret va polimer koordinatsion birikmalarning tuzilish ma'lumotlari va barcha kristallografik kattalıkları asosida Kembrij kristallografik tuzilish ma'lumotlar bazasiga 5 ta birikmaning joylashtirilganligi hamda 5-SSKni Cu(II) metali bilan sintez qilingan  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})_2] \cdot \text{H}_2\text{O}$  va  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})_2]$  tarkibli kompleks birikmalari asosida dizenfiksiyalovchi birikma sintez qilinganligi, ular orqali patogen bakteriyalarning ko'payishini oldini olish mavjudlarini nobud qilishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** 5-SSKni Cu(II) bilan sintez qilib olingan  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})_2]$  tarkibli koordinatsion birikmaning tuzilishi, biologik faolligi va boshqa xususiyatlarga asoslanib O'zR Adliya vazirligi "Intelektual



mulk markazi” davlat muassasidan IAP 7856 raqami bilan qayd qilingan mualliflik guvohnomasi olingan.

5-SSKni Cu(II) bilan sintez qilib olingan  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})_2]\cdot\text{H}_2\text{O}$  va  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})_2]$  tarkibli KBlarining patogen bakteriyalarga qarshi dizenfiksiyalovchi xususiyatiga asoslanib “Muborak gazni qayta ishlash zavodi”ning konstruksiya va qurilmalarida korroziyani keltirib chiqaruvchi mikroorganizmlarga qarshi sinovdan o‘tkazildi va korroziya jarayoniga qarshi ingibitor sifatida amaliyotga joriy qilingan («Muborak gazni qayta ishlash zavodi» ning 22.11.2024 yildagi 985/GK-11 sonli ma’lumotnomasi). Natijada zavodning konstruksiya va qurilmalarida korroziya jarayonining sekinlashishi va uzoq vaqt ishchi holatda saqlab turishiga erishilgan.

5-SSK asosida sintezlangan  $\{[\text{Cu}_3(5\text{-SSK})_2(\text{MEA})_4](\text{H}_2\text{O})_2\}_n$ ,  $\{[\text{Mn}(5\text{-SSK})_2](\text{MEA})(\text{H}_2\text{O})\}_n$ ,  $[\text{Co}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2\cdot 2\text{H}_2\text{O}$  va  $\{[\text{Co}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})]\}_n$  tarkibli koordinatsion birikmalarni fazoviy tuzilishi, barcha kristallografik kattaliklari, hamda individualligiga asoslanib, mos ravishda Kembrij kristallografik ma’lumotlar bazasida №2384143, №2384144, №2384145, №2407466 va №2407467 dipozit raqamlari bilan ro‘yxatdan o‘tkazildi. Natijada ushbu birikmalarni sintez qilish va tuzilish ma’lumotlaridan butun dunyo olimlari foydalanish imkoniyatiga erishildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot ishi natijalari 12 ta jumladan, 7 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 14 ta ilmiy ish va bitta patent e’lon qilingan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 101 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“5-SSK va MEAning ayrim 3d metallari bilan koordinatsion birikmalari”** deb nomlangan birinchi bobida 5-sulfosalitsil kislota va monoetanolaminning tabiatda tarqalishi, fizik-kimyoviy xususiyatlari, biologik faolliklari, eng muhim ishlatilish sohalari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, biologik faolliklari yuqori va unga bog‘liq ravishda foydalanish sohalari keng bo‘lgan koordinatsion birikmalarga bo‘lgan talab hamda qiziqishlar kundan-kunga ortib bormoqda. Shuningdek, Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II), Mn(II),

Ag (I) metallarining koordinatsion birikmalar hosil qilish qobiliyati, biologik faolliklari va fizik-kimyoviy xossalari sintez sharoiti aniqlangan. 5-SSKda oltita donor xususiyatli markazning mavjudligi uni o'ndan ortiq tuzilishga ega bo'lgan koordinatsion birikmalarning sintezlanishi mumkinligi bayon qilingan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot obyektlar, sintez jarayonlari va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida koordinatsion birikmalarning sintezi, element tahlili, reaksiya unumi, suyuqlanish haroratlari, birikmalarning tuzilishini tahlil qilishning zamonaviy fizik-kimyoviy usullari, 3D modellashtirish usullari, biologik faolliklar va zaxarlilik darajasini aniqlash jarayonlari yoritilgan.


Koordinatsion birikmalarni tarkibi va tuzilishini sodda va qulay ifodalash uchun KB-1, 2, 3...12 tartibda idenfikatsiyalandi. KB-1:  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ , KB-2:  $[\text{Zn}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ , KB-3:  $[\text{Ni}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ , KB-4:  $[\text{Co}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ , KB-5:  $[\text{Mn}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ , KB-6:  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})_2] \cdot \text{H}_2\text{O}$ , KB-7:  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})_2]$ , KB-8:  $\{[\text{Co}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})_2]\}_n$ , KB-9:  $\{[\text{Ag}_2(\text{H}_2\text{O})_3(5\text{-SSK})_2]\text{H}_2\text{O}\}_n$ , KB-10:  $\{[\text{Cu}_3(5\text{-SSK})_2(\text{MEA})_4](\text{H}_2\text{O})_2\}_n$ , KB-11:  $\{[\text{Mn}(5\text{-SSK})_2](\text{MEA})(\text{H}_2\text{O})\}_n$ , KB-12:  $\{[\text{Cu}(5\text{-SSK})_2](\text{MEA})_2(\text{H}_2\text{O})_2\}_n$ .

Dissertatsiya ishning **“Olingan koordinatsion birikmalarning molekulyar va kristall tuzilishlari, fizik-kimyoviy xossalari”** deb nomlangan uchinchi bobida sintez qilingan koordinatsion birikmalarning tuzilishi va xossalarini o'rganish natijasida olingan amaliy va nazariy ma'lumotlar keltirilgan.


Tadqiqot davomida koordinatsion birikmalarning tuzilishi RTT yordamida o'rganilgan va 12 ta birikmaning tuzilishi va tarkibining individualligi isbotlangan:  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Zn}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Ni}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Co}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Mn}(\text{H}_2\text{O})_6](5\text{-SSK})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})_2] \cdot \text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})_2]$ , koordinatsion birikmalari geksogonal oktayedirik geometriyada diskret ekanligi aniqlangan,  $\{[\text{Co}(\text{H}_2\text{O})_4(5\text{-SSK})]\}_n$ ,  $\{[\text{Ag}_2(\text{H}_2\text{O})_3(5\text{-SSK})_2]\text{H}_2\text{O}\}_n$ ,  $\{[\text{Cu}_3(5\text{-SSK})_2(\text{MEA})_4](\text{H}_2\text{O})_2\}_n$ ,  $\{[\text{Mn}(5\text{-SSK})_2](\text{MEA})(\text{H}_2\text{O})\}_n$  va  $\{[\text{Cu}(5\text{-SSK})_2](\text{MEA})_2(\text{H}_2\text{O})_2\}_n$  koordinatsion birikmalar esa polimer tuzilishli ekanligi aniqlangan.

KB-1dan KB-5 gacha bo'lgan birikmalar ichki sferasidagi metall ionlariga oltita suv molekulari koordinatsialangan bo'lib, tashqi sferasidagi ikki molekula suv hamda ikki molekula 5-SSK anioni vodorod bog'lari orqali ichki sferaga bog'lanib, izostrukturalarni hosil qilganliklari isbotlangan (1-rasm).

Tadqiqot davomida MEAning kimyoviy reaksiya muhitiga ta'siri etishi reaksiya maxsulotining turlicha bo'lishiga olib kelganligi aniqlangan. KB-7ning sintezida (5-SSK va MEA 1:1 mol nisbatda) 5-SSKni sulfo guruhini MEA bilan vaqtincha biloklanishi natijasida, markaziy atom Cu(II) ioniga ikkita 5-SSKni karbonil guruhi orqali monodentant koordinatsialangan, lekin sulfo guruhlari proton yo'qotishi hisobiga Cu(II) ionini neytrallaydi, qolgan koordinatsion sonini to'rtta suv molekulari to'ldirgan va misning umumiy koordinatsion soni oltiga teng bo'lgan. KB-6 sintezida esa reaksiya jarayonida MEA ishlatilmagan, bunda ham misning koordinatsion soni oltiga teng bo'lib ikkita 5-SSK sulfo guruhlari orqali misga ion bog'i orqali birikkanligi aniqlangan, qolgan koordinatsion sonni to'rt molekula suv to'ldirgan, bir molekula suv tashqi sferada bo'lib, ichki sferaga H-bog'lari orqali birikkan (2-rasm).




**1-rasm. KB-1, KB-2, KB-3, KB-4, KB-5 izostrukturalarning o‘xshashlik va farqlari.**



**2-rasm. Sintez jarayonidagi MEA ishtirokisiz KB-6, ishtiroki bilan KB-7larning tuzilishidagi farqlar**


Tadqiqotlar davomida 5-SSK asosida monoligandli polimer koordinatsion birikmalar sintezlandi, KB-8ning sintezida MEA qo‘llanilishi natijasida koordinatsionalanish korboksil guruh orqali yuzaga kelishi aniqlangan (3-rasm).



**3-rasm. 5-SSK Co(II) va Ag(I) ishtirokida olingan polimer koordinatsion birikmlari assimetrik birlikda ifodalandi.**

KB-8 polimerning RTTga ko‘ra har bir Co(II) ioni ikki qo‘shni 5-SSKning karboksilat guruhlardan bittadan kislorodlari va to‘rtta suv molekulasini tomonidan koordinatsiyalangan, bunday koordinatsiya natijasida kristalda [001] yo‘nalishda polimer zanjir hosil bo‘ladi (4-rasm). Zanjirlarni qadoqlash natijasida koordinatsion polimer  $\{[Co(5-SSK)(H_2O)_4]\}_n$  yoki katena-(tetra-aqua-(m2-5-sulfosalitsilato-O,O’)-kobalt(II) birikmasi hosil bo‘ldi.


$\{[Cu_3(5-SSK)_2(MEA)_4](H_2O)_2\}_n$  tarkibli aralash-ligandli koordinatsion polimerning RTT tahliliga ko‘ra polimer birikma P-1 triklirik tizimida kristallandi. Birikmaning assimetrik birligi karboksilat guruhining kislorod atomi O2 va gidroksil guruhi kislorod atomi O3 bilan ikki tomondan koordinatsiyalangan Cu1, ikkita MEA molekulasining kislorod va azot atomlari orqali besh a‘zoli xalqa hosil qilib xelatlangan Cu2 ionidan iborat (6-rasm, a).



**4-rasm. KB-9ning [001] yo‘nalishi bo‘yicha harakatlanuvchi polimer zanjiri**

CuI inversiya markazida joylashgan, bo‘lib, ushbu markaz orqali simmetrik transformatsiya natijasida 6,b-rasmda ko‘rsatilgan bimolekulyar polimer birlik hosil bo‘ladi. Unda ligand molekulasini ikki qo‘shni CuI ionini bir uchida O2, O3 atomlari va ikkinchi uchida sulfoguruhning O4 atomlarining koordinatsion bog‘lari orqali birikishi natijasida cheksiz takrorlanadigan polimer zanjirni hosil qildi (1-jadval). Ikkita suv molekulasini tashqi sferada joylashib, H-bog‘lanish orqali polimer zanjirga bog‘langan.

Har ikkala Cu(II) ionining koordinatsion soni oltiga teng bo‘lib, Janh-Teller effekti tufayli har bir Cu(II) ioni buzilgan oktaedr shaklga ega (1-jadval). Polimer koordinatsion birikmaning 1D tarmoqli zanjirlari orasidagi H-bog‘larning murakkab tizimi sababli, ushbu polimer koordinatsion birikma fazoda yo‘naluvchan 3D polimer koordinatsion birikmalar toifasiga kirishi aniqlangan.




6-rasm. KB-10ning ORTEP tuzilishi: assimetrik qism (a) va 1-D bimolekulyar polimer zanjiri (b).

1-jadval.

Polimer birikmada tanlangan bog‘lanish masofalari va burchaklari

Bog‘	masofa/Å	Bog‘	masofa/Å	Burchak	Gradus
Cu1-O2	1.9004(19)	Cu2'-O7	2.304(2)	O2-Cu1-O3	85.67(8)
Cu1-O3	1.9376(18)	Cu2'-O8	2.124(2)	O3-Cu2-O2	71.23(7)
Cu2-O2	2.386(19)	Cu2-N1	1.972(3)	O3-Cu2-O7	118.48(8)
Cu2-O3	2.0769(19)	Cu2-N2	1.968(2)	N2-Cu2-N1	172.005(11)
Cu2'-O2	2.386(19)	Cu2'-N1	1.972(3)	N2-Cu2-O3	90.25(9)
Cu2'-O3	2.0769(19)	Cu2'-N2	1.968(2)	N2-Cu2-O8	83.475(9)

Tadqiqotlar davomida 5-SSKga nisbatan MEA turli konsentratsiyalarda olinishi natijasida aralash ligandli polimer koordinatsion birikmalar ham sintezlangan (4-rasm).




4-rasm. 5-SSK va MEA ishtirokida olingan aralash ligandli polimer koordinatsion birikmalar (asimmetrik birlikda ifodalangan)

Birikmalarning tuzilishi IQ-spektroskopik usullar bilan ham o‘rganilgan va 5-SSKning IQ spektri bilan solishtirilgan. Sintez qilingan KB-1, KB-2, KB-3, KB-4, KB-5, KB-7, KB-8 va KB-9 birikmalarning asosiy tarkibi 5-SSK bo‘lganligi uchun, ularning IQ spektrlarida diyarli katta farqlar kuzatilmaydi (2-jadval).

<b>2-jadval. Sintezlangand koordinatsion birikmalarning IQ spektrlari, <math>\nu</math>-valent tevranişlar, <math>\delta</math>-difformatsion tebranişlar</b>										
Birikma	$\nu$ (-OH)	$\nu$ (-NH)	$\nu$ (C-H)	$\nu$ (C=O)	$\nu$ (xalqa)	$\nu$ (S=O)	$\delta$ (S=O)	$\delta_{as}$ (C-H)	$\delta_s$ (C-H)	$\nu$ (O-M)
5-SSK	3106		3066	1659	1603 1581	1478 1433	1366	1150 1117	1081 1018	
KB-1	3162			1677	1610 1585	1482 1429	1380	1189 1153	1082 1027	575 518
KB-2	3370			1664	1608	1477 1436	1339 1305	1203 1154	1080 1032	586 534
KB-3	3371			1664	1608	1477 1436	1339 1305	1204 1155	1080 1032	586 534
KB-4	3350			1699 1663	1610 1586	1474 1437	1320 1304	1151 1125	1078 1028	571
KB-5	3369			1664	1608	1477 1436	1339 1305	1203 1128	1080 1032	586 570
KB-6	3111		3071	1660	1607 1581	1478 1431	1364 1348	1152 1122	1081 1023	572 514
KB-7			3096	1659	1609 1584	1475 1421	1373 1315	1182 1142	1078 1022	568 517
KB-8	3383			1663	1609 1585	1475 1431	1338 1296	1180 1120	1077 1022	566 508
KB-9	3388			1658	1614 1585	1477 1425	1349 1288	1184 1122	1078 1031	580 540
KB-10	3402	3237 3150	3064	1597	1550	1467 1417	1335 1308	1197 1154	1065 1021	584 523
KB-11	3377 3314	3197 3113	3039	1630 1586	1512	1449 1390	1331	1146	1061	698 602
KB-12	3274	3165		1665	1582	1478 1430	1287	1153 1123	1081 1028	575 518

Spektroskopik tahlilga ko'ra 5-SSK va koordinatsion birikmalarning tarkibidagi –OH guruhlarini 3106  $\text{cm}^{-1}$  dan 3402  $\text{cm}^{-1}$  sohalar oralig'ida o'tkir yutilishlar bilan valent tebranishlari, aromatik xalqalardagi C-H bog'lari 3039  $\text{cm}^{-1}$  dan 3096  $\text{cm}^{-1}$  sohalar oralig'ida valent tebranishlarni qayd etgan. Uning asimmetrik difformatsion tebranishlari 1204  $\text{cm}^{-1}$  dan 1117  $\text{cm}^{-1}$  sohalarda, simmetrik difformatsion tebranishlari 1081  $\text{cm}^{-1}$  dan 1018  $\text{cm}^{-1}$  sohalarda yuzaga keldi. Birikmalar tarkibidagi karbonil (C=O) guruhning valent tebranishlari 1699  $\text{cm}^{-1}$  dan 1586  $\text{cm}^{-1}$  sohalar orasida kuzatilgan, shuningdek S=O bog'ining valent tebranishlari 1482  $\text{cm}^{-1}$  dan 1390  $\text{cm}^{-1}$  sohalarda, difformatsion tebranishlari esa 1380  $\text{cm}^{-1}$  dan 1287  $\text{cm}^{-1}$  gacha oralig'ida kuzatilgan. KB-10, KB-11 va KB-12 birikmalar tarkibidagi MEAgga tegishli bo'lgan amin guruhining valent tebranishlari 3217  $\text{cm}^{-1}$  dan 3113  $\text{cm}^{-1}$  sohalar oralig'ida kuzatilgan (7-rasm). Koordinatsion birikmlarda markaziy atom bilan birikkan M-O bog'lari 698  $\text{cm}^{-1}$  dan 508  $\text{cm}^{-1}$  sohalar oralig'ida tebranishlari kuzatilgan.



**7-rasm. 5-SSKning (a), KB-10ning (b), KB-11ning (c), KB-12ning (d) IQ spektrlari**

Tadqiqotlarimiz davomida sintezlangan koordinatsion birikmalarning tarkibdagi elektron ko'chish hodisalari ultrabinafsha spektroskopik usul bilan o'rganildi. Aksariyat koordinatsion birikmalarning markaziy atomi 3d metallari bo'lib, ulardagi d-d o'tishlar ultrabinafsha nurning  $\lambda_{\text{max}}$  qiymatlari 401 nm dan 800 nm gacha oraliqda yuzaga keldi (3-jadvalga qarang). 800 nm to'lqin uzunliklari sohasida ligand maydonning ta'siri zaif bo'lsa, aksincha 401 nm to'lqin uzunliklari sohasida d-d ko'chishlari bo'layotgan metalda ligand maydonning ta'siri kuchli bo'ladi va 3d orbitalning ikkita energetik qavatga ajralishi qiyinlashadi (3-jadval). Sintezlangan koordinatsion birikmalarning barqarorliklari Babko usuli bilan

aniqlandi, buning uchun belgilangan birikmalardan teng konsentratsiyali eritmalar qoʻllaniladi. Analiz natijalari quyidagi formulalar orqali hisoblandi.

$$K_{\text{barqaror.(KB)}} = \frac{[H^+] \cdot (A_1 \cdot C_2 - A_2 \cdot C_1)^{q+1}}{(C_1 \cdot \sqrt[3]{A_2} - C_2 \cdot \sqrt[3]{A_1}) \cdot (A_1 \cdot \sqrt[3]{A_2} - A_2 \cdot \sqrt[3]{A_1})^q}; (1) \quad K_{\text{barqaror.(KB)}} = \frac{1}{K_{\text{barqaror.(KB)}}}; (2)$$


Olingan natijalarga koʻra koordinatsion birikmalarning barqarorlik konstantasining oʻrtacha qiymati Irving-Vilyams qatoriga boʻysingan holda: KB-5 < KB-4 < KB-3 < KB-1 < KB-6 > KB-7 > KB-8 tartibda oʻzgarib bordi.

<b>3-jadval. Koordinatsion birikmalarda UB nur taʼsirida elektron koʻchish hodisalari</b>				
Birikma	Elektron koʻchish turlari			
	d→d	n→π*	LMCT	π→π*
5-SSK		300		216
KB-1	800	298	234	214
KB-2		298	235	215
KB-3	726	298	234	212
KB-4	511	298	235	215
KB-5	401	298	234	213
KB-6	728	298	234	212
KB-7	800	298	234	214
KB-8	512	298	234	215
KB-9		298	233	214
KB-10	695	298	234	210
KB-11	485	297	241	
KB-12	760	297	236	211


KB-6, KB-7 birikmalarning termik barqarorligi DTA yordamida aniqlandi (7-rasm). KB-6ning termogravimetrik egri chizigʻida asosan 3 ta intensiv massa yoʻqotiladigan harorat oraligʻida amalga oshdi. 1-massa yoʻqotiladigan oraligʻ 20.15–159.91 °Cda 1.365 mg (16.206%) suv bugʻlarining, 2–oraligʻ 159.91–443.64 °C 4.790 mg (56.868%) 5-SSKning chiqib ketishi, 3–oraligʻ 443.64–801.81 °C haroratgacha 0.875 mg (10.388%) kompleks birikmaning toʻliq destruksiya uchirishi hisobiga, jarayon soʻngida CuO ning qolgan. Shular bilan birgalikda DTA grafigida 120.67 °C, 194.44 °C, 267.16 °C va 340.73 °C larda endotermik effekt kuzatildi.

KB-7ning termogravimetrik egri chizigʻida asosan 2 ta intensiv massa yoʻqotilishi: 1-massa 17.89–157.20 °C harorat oraligʻida 0.261 mg (5.060%) kristalizatsion suvning bugʻlanishi, 2-massa esa 157.20–800.07 °C harorat oraligʻida 3.807 mg (73.808%) kompleks birikmaning toʻliq destruksiya uchirishi hisobiga mos keladi, jarayon soʻngida CuO ning qolishi bilan tushuntiriladi deb taxmin qilindi. Shular bilan birgalikda DTA grafigida 237.32 °C larda endotermik effekt kuzatildi.





KB-6



KB-7



**8-rasm. KB-6 va KB-7larning termogravimetrik tahlili.**

KB-6 va KB-7ning elektron xususiyatlari DFT tahlili orqali tekshirildi (9-rasm). Kimyoviy qattqlik ( $\eta$ ) va yumshoqlik ( $S$ ) molekula faolligi va barqarorligining foydali ko'rsatkichlari hisoblanadi. KB-7 0,7428765 eV qattqlik qiymatiga ega edi, KB-6 esa 1,9415475 eV qattqlikni sezilarli darajada yuqori ko'rsatdi. Ushbu qiymatlar KB-7ning yumshoqroq va shuning uchun ko'proq faol ekanligini ko'rsatadi, KB-6 esa qattiqroq va barqarorroq. Qattqlikka teskari proporsional bo'lgan yumshoqlik bu kuzatuvni yanada qo'llab-quvvatlaydi, KB-7ni KB-6ning 0,515 bilan solishtirganda 1,346 yumshoqlikka ega (4-jadval).



KB-6

KB-7

HOMO



LUMO



**9-rasm. KB-6 va KB-7 komplekslarning eng yuqori band bo'lgan molekulyar orbitallari (HOMO) va eng past band bo'lmagan molekulyar orbitallari (LUMO).**

4-jadval.

KB-6 va KB-7 ning DFT qiymatlari

Birikma	HOMO	LUMO	Energiya bo'shlig'	Elektronmanfiylik (eV)	Qattqlik (eV)	Yumshoqlik (eV)
a	(eV)	(eV)	(eV)			
KB-6	-5.63	-1.75	3.883	3.126	1.941	0.515
KB-7	-3.86	-2.38	1.485	3.693	0.742	1.346

Tadqiqotlarimiz davomida KB-1, KB-2, KB-3, KB-4, KB-5, KB-6, KB-7 va KB-8larning kristall tuzilmalarning Hirshfeld yuzalarini tekshirish va tegishli ikki o'lchovli (2D) barmoq izlari chizmalari yaratildi.

